



O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta

Maxsus Ta`lim Vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti

Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası



Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n., dots. H.R.Hamroev

«_____» _____ 2014 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: "Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish"

Bajardi:

5811700 – "Servis (turizm va mehmonxona xo'jaligi)"
yo'nalishi kunduzgi bo'lim 4 kurs "T" guruhi talabasi
Sharofiddinov Shohabbos

Ilmiy rahbar, i.f.n., dots.

S.S.Ro'ziyev

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2014 yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2013

Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Servis(turizm va mehmonxona xo'jaligi) yo'nalishi 4-T guruh talabasi Sharofiddinov Shohabbos tomonidan tayyorlangan "Mehmonxo'jaligi faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Bugungi kunda turizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Ekspertlarning fikricha, bu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki mehmonxonalarimizdagi iqtisodiy muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ortiq ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Bu o'rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O'rta Sharq hamda Yevropa mintaqalaridagi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Ekspertlarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda turizm industriyasida mehmonxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish natijasida, soha jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda turizmni shakllantirishda katta potensialga ega. Ushbu potensialdan optimal foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Buning uchun mehmonxonalarimiz faoliyati va iqtisodiy ahvolini chuqur o'rganishimiz kerak.

Talaba Naimova Surayyoning bitiruv malakaviy ish mavzusi **"Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish"** deb nomlanib, yuqorida ko'rsatilgan muammoni yechishga bag'ishlangan.

Shuning uchun talaba bizning mehmonxonamiz faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishga harakat qildi va fikrimcha buning uddasidan chiqdi.

"Bukhara Palace" mehmonxonasi
bosh menedjeri



M.B Sattarov

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning tutgan o'ri, ahamiyati va vazifalari	
1.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborot manbalari va ularni tahlilga tayyorlash.....	7
1.2. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari.....	11
1.3. Mehmonxona xo'jaligida rejalashtirish jarayoni.....	12
2-BOB. Turizm korxonasining moliyaviy holatini tahlili	
2.1. Mehmonxona xo'jaligini iqtisodiy tahlil qilishning iqtisodiy-matematik usullari	22
2.2. Kompleks iqtisodiy tahlil va xizmat ko'rsatishning muhimsamaradorlik ko'rsatkishlarini tahlil qilishning metodik asoslari	28
2.3. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	32
2.4. Mehmonxonalarning moliyaviy barqarorlik tahlili	34
3-BOB. "Bukhara Palace" mehmonxona majmuasi faoliyatining iqtisodiy tahlili	
3.1. Mehmonxonada turistik mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish hajmining tahlili.....	41
3.2. Mehmonxonadagi xarajat va tushum mosligining tahlili.....	54
XULOSA VA TAKLIFLAR	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	67
ANNOTATION.....	71
ILOVALAR.....	79

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. XX asr insoniyat hayoti va faoliyati tarzi tarovatining barcha sohalariga ulkan o'zgarishlarni olib keldi. Bu o'zgarishlar fan va ilmiy tadqiqotlar, texnikani rivojlantirish, yangi materiallar, texnologiyalar yaratish va ishlab chiqarishni boshqarish sohalarida yorqin namoyon bo'ldi. Insonning o'zi, ya'ni moddiy boyliklarni ishlab chiqaruvchi va shu bilan birga ularni iste'mol qiluvchi shaxsning o'zi ham sifat jihatidan o'zgarib bormoqda. Insonlarning falsafasi, dunyoqarashi, fikri - tafakkuri ham tubdan o'zgarib bormoqda. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng bozor munosabatlariga o'ziga xos model orqali kirib bormoqda. Bozor munosabatlariga o'tish ob'yektiv zaruriyat bo'lishi bilan birga zamon talabi hamdir. Bozor iqtisodiyoti barcha imkoniyatga daxldor hodisa bo'lib, jahon sivilizatsiyasining rivojlanish yo'lida muqarrar bosib o'tiladigan bosqichdir. Bozor iqtisodiyotining chinakkam oxirgi maqsadi, avvalo, insonga munosib yashash sharoitlarini yaratish va respublikani madaniyat va taraqqiyot cho'qqilariga olib chiqishdir. Bozor munosabatlariga o'tish qaror topib kelayotgan yangi davlatchilik uchun jamiki resurslardan foydalanishni, xalq xo'jaligining farovon turmush kechirayotgan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chishni ta'minlab beradigan qudratli iqtisodiy asos yaratib berishi kerak.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham iqtisodiyotning noishlabchiqarish, xususan turizm sohasiga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim

o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa turizm sohasining qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqki, turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

O'zbekiston yangi XXI asrga shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. XXI asr turizm va sayyohlik asri bo'ladi deb bashorat qilinmoqda. XXI asrda turizm o'zining salmoqli hissasi bilan respublika budjetida valyuta tushumini ta'minlaydi. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog'onalarga ko'tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Bu yutuqlarga erishish uchun, oldimizda turgan qator muammo va kamchiliklarni aniqlashimiz va hal qilishimiz zarur. Buning uchun bizga turizm korxonalarini, shu jumladan, mehmonxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish juda kata yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi vaqtda tub islohotlar va ularni chuqurlashtirish, ya'ni, sifat jihatdan va mazmunan yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. Islohotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o'sishga erishishdek dolzarb vazifa qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida rejali iqtisodiyot sharoitida shakllangan barcha iqtisodiy kategoriyalar va dastaklarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra milliy istiqbol g'oyasiga va O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyot

yo`liga mos ravishda yangilanishini taqozo qiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy tahlil nazariyasi ham kiradi.

Turistik korxonani iqtisodiy tahlil qilishning maqsadi faoliyat ko`rsatayotgan xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yaqqol ko`rsatib berish, kamchiliklarini ochib tashlashdan, turizm korxonasining asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlariga baho berish va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, hamda xizmat ko`rsatish samaradorligini oshirish bo`yicha ichki xo`jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb qilish bo`yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Bular esa o`z navbatida iqtisodiy tahlil qilishning o`ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil qilishning tutgan o`rni, vazifalari beqiyos oshmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda, ishda iqtisodiy tahlilning milliy istiqlol g`oyasiga mosligini ta'minlash muammolari, nazariy asoslari, predmeti, mazmuni, vazifalari, usuli, texnik usullari, iqtisodiy-matematik usullar, turlari bayon etilgan. Iqtisodiy tahlilning shakllaridan biri kompleks tahlildir. Shu bois ishda iqtisodiy tahlilning kompleks tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, rezervlarni yig`ma hisoblash va ularni aniqlash usullariga alohida e'tibor berilgan. Ishda iqtisodiy tahlilning nisbatan yangi turi - funktsional-qiymat tahlili (FQT) ga ham alohida o`rin berilgan. Shuningdek, ishda turizm korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlarini tahlil qilish usullarining asoslari qisqacha yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqod ob'ekti - Buxoro shahridagi "Bukhara Palace" mehmonxonasi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi – Yurtimizdagi mehmonxonalar faoliyatini samarali iqtisodiy tahlil qilish choralarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti - Mehmonxonalarda kuchli iqtisodiy tahlil qilish natijasida yuqori samaradorlikka erishish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi - Buxoro shahridagi mehmonxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish samaradorligini oshirishda aniq tavsiyalar va yangi xizmatlar turlarini taklif qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi: kirish, III bob, shuningdek har bir bobda 3 tadan paragraf-savol, xulosalar, tavsiyalar, jadvallar, va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ish hajmi 80 betdan iborat.

I-Bob Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni, ahamiyati va vazifalari

1.1 Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborot manbalari va ularni tahlilga tayyorlash.

Tabiat va jamiyatdagi hodisalar singari iqtisodiy hodisalarning ham tarkibiy qismlarini bilmay turib, ya'ni tahlil kilmay turib, ularni ilmiy jixatdan o'rganib bo'lmaydi.

Analiz iborasi «analysis» so'zidan olingan bo'lib, «bo'laman», «hal etaman» degan ma'noni bildiradi. Binobarin, tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy qismlarga bo'lish, ajratib qo'yish asosida ko'rsatkichlarni taqqoslash va o'rganish demakdir. Ma'lumki, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, faoliyatning sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha muvaffaqiyatlarni o'rganish va uni takomillashtirishning qulay yo'llarini belgilash - iqtisodiy tahlilni tashqil qilishning zaruriy shartlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilning roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma'muriy-buyrukbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldingi tahlil asosan, reja ko'rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, har bir xo'jalik sub'ekti o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqaradi. Bu o'z navbatida tahlilning rolini oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir sub'ektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy tahlil orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyati aniqlanadi. Bunda, tahlil uchun manba bo'lib, yig'ma statistik ma'lumot asos bo'la oladi. Mehmonxon xo'jaligi faoliyatini tahlil

qilishdan maqsad turistik korxona va mehmonxonalarning ish faoliyatiga ob'ektiv baho berish va xo'jalik yuritishning samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Bunday tahlil natijalari korxonaning xo'jalik faoliyatini doimo nazorat qilib turishni, unga rahbarlik qilishda xatoga yo'l qo'ymaslikning oldini olishga xizmat qiladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish quyidagi tamoyillarga amal qilgan holda amalga oshiriladi:

- Ilmiy asoslangan tamoyil;
- Ob'ektivlik tamoyili;
- Tizimli va komplekslik tamoyili;
- Operativlik tamoyili;
- Umumiylik tamoyili.

Iqtisodiy tahlilning vazifasi- ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar bilan cheklanmaydi. Mehmonxona xo'jaligi faoliyati shu darajada serqirradi, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasi ham ko'p qirralidir.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Mehmonxona xo'jaligini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy vazifasi - bu mehmonxonalar faoliyatida foyda miqdorini ko'paytirishning tug'ri va optimal yo'llarini aniqlab berishdir. Agar mehmonxona faoliyatida foyda miqdorining oshishiga narx-navoning ko'tarilishi yoki atrof muxitga zarar yetkazish evaziga erishilsa, buni xech qachon mehmonxona muvofaqqiyati deb bo'lmaydi.

Iqtisodiy tahlil oldida to'rgan muhim vazifalardan yana biri - bu mehmonxona mehnat jamoasi faoliyatining iqtisodiy natijasini aniqlashdir. Tahlil qilish jarayonida tashqi va mehnat jamoasiga bogliq omillar ahamiyatini o'rganish lozim. Bunda faqatgina erishilgan natijalarni me'yoriy yoki hisobot davri natijalari bilan taqqoslash bilan chegaralanib qolish kerak emas. Eng muhimi - mamlakat erishgan yutuqlari, raqobatbardosh turmahsulot ko'rsatkichlari va dunyo ilmiy-texnika

darajasi bilan solishtirish muvaffaqiyatlar garovi ekanligini unutmaslikdir.

Masalan mehmonxona xo'jaligini tahlil qilishni quyidagi masshtablarda amalga oshirish mumkin:

- xalq xo'jalik tahlili;
- mehmonxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili.

Xalq xo'jaligi tahlilida iqtisodiyotning butun tarmog'i, ayrim regionlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi, ushish darajasi va ularning rivojlanishdagi o'ziga hos xususiyatlari va qonuniyatlari o'rganiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob va hisobotni ikki qismga bo'lish qabul qilingan:

1. Boshqaruv hisobi:
2. Moliyaviy hisob (umum buxgalteriya hisobi).

Shunga muvofik iqtisodiy tahlilni ham ikki qismga: moliyaviy va boshqaruv tahlilga bo'linadi. o'z navbatida moliyaviy tahlil tashqi va ichki moliyaviy tahlilga, boshqaruv tahlil esa ichki boshqaruv tahlilga bo'linadi.

Tashqi moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida, ichki moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi va hisoboti va tezkor hisobotlar asosida olib boriladi.

Ichki boshqaruv tahlili esa tezkor hisobotlar va boshqaruv hisoboti asosida olib boriladi.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi bu mehmonxonani hisobotlar orqali o'tgan davrda, tahlil qilinayotgan vaqtda va kelajakda erishiladigan moliyaviy natijalari va moliyaviy holatiga baho berish hamda iqtisodiy tashxis quyidagidan iboratdir.

Moliyaviy tahlilning asosiy bosqichlari:

1. Tahlilning maqsadini aniqlash va unga yondoshish yo'llarini belgilash. Bu bosqichda mehmonxonani ko'rsatkichlari ularning xalq xo'jaligi, tarmoq

bo'yicha miqdorlariga, o'tgan davr va rejadagi xajmlariga. Boshqa turdagi turizm korxonalari ko'rsatkichlari bilan solishtirish.

2. Tahlil uchun qilingan axborotlar sifatiga baho berish. Bu bosqichda axborotlarning to'g'riligini hisobotlardagi ko'rsatkichlarning tahlil talablariga javob bera olishligi tekshiriladi.

3. Tahlilning usullaridan foydalangan holda tahlil o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish. Ushbu bosqichda bevosita tahlil o'tkaziladi va unda uning usullari majmuasidan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- davlat byudjeti bilan aloqalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- to'lov qobiliyati va to'lovga qodirlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Mulk shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlari Respublika Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-soni buyrug'i bilan quyidagi hisobot shakllari tavsiya etilgan.

1-shakl. Buxgalteriya balansi.

2-shakl. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

2a-shakl. Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma.

3-shakl. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot.

4-shakl. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot.

5-shakl. O'z sarmoyasi to'g'risida hisobot.

Valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumot.

Moliyaviy hisobotni tuzishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinishi kerak:

1. tezkorlik;

2. vaqtga amal qilishlik;
3. tushunarliklik;
4. to'g'ri va aniqlik;
5. tahlilga mos kelishlik;
6. ob'ektni to'liq ifodalay olishlik;
7. tarmoq tamoyiliga qilishlik;
8. sifatliklik.

Moliyaviy hisobotdan foydalanishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish kerak:

1. ishonchliklik;
2. solishtirish mulkchiligini ta'minlashlik;
3. ko'rsatkichlarning tahliliyligini ta'minlashlik;
4. xolislik;
5. batafsililik;
6. qamrovlilik;
7. tegishli ma'lumotlarni ifoda etishliklik.

1.2 Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarlarining faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uchun asos qilib olingan quyidagi tamoyillar mavjud:

1.Ob'yektning holatini dastlabki iqtisodiy nazariya jihatidan tahlil qilishning zarurligi, o'rganiladigan hodisalarning mohiyati va bir-biriga o'zaro bog'liqligi.

2.Tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o'zaro bir-biriga uzviy ravishda bog'liq tahliliy ko'rsatkichlar tizimining qo'llanishi.

3.Iqtisodiy ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash jarayonida o'rganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni miqdor va sifat belgilariga qarab turkumlash.

4.Mehmonxonalar faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.

5.Tahlil natijalari asosida ilg`or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish.

6.Mehmonxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli, ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbai ekanligi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo`ldi.

Mehmonxonalarning xo`jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko`zlangan asosiy maqsad rezervlarni aniqlashdir. Rezervlarni aniqlashni osonlashtirish uchun ularni ilmiy asosda turkumlash kerak. Rezervlar quyidagilardan iborat: xalq xo`jaligi, tarmoq, regional (yondosh) va ichki xo`jalik rezervlari. Aytaylik, turizm sanoatida turmahsulot tannarxini arzonlashtirish borasida bo`lgan katta rezervlardan biri – mehmonxonalar va restoranlar zanjirini tashkil etish hisoblanib, bu o`z navbatida aholini mehnat faoliyati bilan ta`minlashni taqozo kiladi. Shu sababli bunday rezervlar xalq xo`jaligi rezervlari qatoriga kiradi. Ixtisoslashtirish darajasini oshirish esa tarmoq rezervlari qatoriga kirib, u asosan vazirliklarga bog`liqdir. Regional rezervlarga, aytaylik, bir ma'muriy rayonda joylashgan turli boshqarmalarga qarashli sanoat korxonalarini kooperativlashtirish misol bo`la oladi. Ichki xo`jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo`jalik aylanmasiga yo`naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa asosan uch guruh ishlab chiqarish resurslari, (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari) omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog`liq.

1.3 Mehmonxona xo`jaligida rejalashtirish jarayoni

Ayrim kishilar reja asosidagi faoliyat tadbirkorlikni tizginlab turadi deb taxmin qiladi. Uncha katta bo`lmagan va ish boshlayotgan firmalarda rahbarlar shunchalik band bo`lishadiki, ularda shunchaki rasmiy rejalarni tayyorlashga shunchaki vaqt ham qolmaydi. Ular esa faqat yirik korporasiyalar rejalashtirishga ehtiyoj sezadi deb hisoblashga moyil

bo'lishadi. hatto baobro' tashkilotlarda ham rahbarlar rasmiy rejalarsiz ham binoyidek ish ko'rsatadilar va ularga katta e'tibor berishga ham arzimaydi degan fikr mavjud bo'ladi. Odatda mehmonxonalar xizmatlari boshliqlari yozma reja tuzilishiga qarshilik ko'rsatadilar, negaki bu narsa o'zini o'zi tahlil qilish sa'y-harakatlari va vaqt talab qiladi. Bundan tashqari, ular taqin bir bahonani ilgari suradilar — bozor nihoyatda tez o'zgaradi, shuning uchun ham rejalaridan hech qanaqangi foyda yo'q. Real voqelikda rejalarlashirish har qanday korxonaning istalgan faoliyatini boshqarish uchun zarurdir. Marketing rejasi — firma yoki tashkilot umumiy strategik rejalashtirishining bir qismi sanalgan bir necha ish rejalaridan biridir.

Odatda tashkilotlar va korxonalar strategik, uzoq muddatli va yillik reja tuzadilar.

Strategik reja korxona ishbilarmonlik faolligi va zamonning aynan mazkur davrida va yaqin istiqbolda uning siyosati yo'nalishlarini belgilab beradi. U hozir va kelajakni qanday ko'rishni havola etadi va doimiy o'zgaruvchi muhitda korxona manfaatlari yo'lida imkoniyatlardan foydalanishga sharoiti yaratib beradi. Bu, bir tomondan, korxona maqsadlari va imkoniyatlari o'rtasida, boshqa bir tomondan esa, bozorning o'zgarayotgan imkoniyatlari o'rtasidagi strategik muvofiqlikni qaror toptirish va saqlab turish jarayonidir.

Uzoq muddatli reja keyingi yillar mobaynida korxonaga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omillar va kuchlarni tavsiflab tasvirlaydi. Uning mundarijasida uzoq muddatli maqsadlar, ularga erishish uchun foydalaniladigan asosiy marketing strategiyalari mavjud bo'ladi va buning uchun zarur resurslarni belgilab beradi. Bunday uzoq muddatli reja unga tuzatishlar kiritish maqsadida va ro'y bergan o'zgarishlarga muvofiq tarzda har yili yangilanadi.

Yillik reja esa joriy vaziyatni, mehmonxona korxona maqsadlarini, navbatdagi yildagi strategiyani, harakatlar dasturini, byudjet va nazorat shaklini tavsiflab tasvirlovchi qisqa muddatli rejani o'zida ifoda etadi.

Bundan buyoqiga endi mehmonxona korxonasida yillik rejalarni tayyorlash jarayonini ko'rib chiqamiz.

Boshqaruv darajasining ishchanlik rejalari mehmonxona strategiyasini ishchanlik amaliyotiga aylantiradi. Mehmonxona korxonasi rahbariyati strategik rejadani olingan bilimlar bilan faqatgina yanada boyiydi va kompaniyani maqbul yo'nalishda rivojlantirish uchun asos tariqasida undan foydalanadi. har qaysi ish rejasi garchand mustaqil bo'lsa-da, shu bilan birga korxonaning boshqa ish rejalari bilan qo'shib ketadi.

Marketing rejasi, garchi u xizmatlarning ma'lum turlariga nisbatan yordamchi rejalardan tashkil topgan bo'lsa hamki, butun mehmonxona faoliyatidagi marketing strategiyasini aks ettiradi. Marketing asosiy yoki yordamchi rejalari bo'lsa-da, ishlarning ishlami va tuzilmasi yagona metodologiya va modelga mos keladimi? Odatdagi sharoitda marketing rejasi marketing resurslarini uning maqsadlariga erishish uchun keng ko'lamda ishga solish metodlarini tavsiflaydi.

Rejalashtirish jarayoni korxona maqsadlarini, tadqiqot predmeti va usullarini belgilashdan boshlanadi. Buning uchun esa marketing tadqiqotlari o'tkaziladi va mehmonxona korxonasining ichki va tashqi marketing muhiti, uning raqobatchilari, bozordagi vaziyat va hokazolar to'g'risida to'liq axborot yiqiladi. qo'lga kiritilgan tadqiqot ma'lumotlari 282 asosida SWOT-analiz o'tkaziladi, mehmonxona rahbariyati e'tiboriga yetkaziladigan takliflar chiqariladi.

Ana shu takliflar asosida rahbariya korxona marketingi uchun maqsadlar va vazifalarni shakllantiradi, tegishli marketing strategiyalarini va ularni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni

ishlab chiqadi.

Konkret harakatlar dasturiga aylantirilgan marketing strategiyalari quyidagi masalalarga javob berishi lozim, binobarin:

- Nima qilinadi?
- Qachon qilinadi?
- Ana shu ish uchun kim javob beradi?
- Bu narsa qancha turadi?

Masalan, mehmonxonaga tegishli bo'lgan bozor ulushi o'sishi asosiy strategiyasi sifatida bo'linma rahbari marketing bo'yicha rejada mahsulot o'tkazish va sotishni raqbatlantirish bo'yicha tadbirlar miqdorini oshirishni taklif qiladi. Uning rejasida turistik agentlar uchun, mehmonxona to'g'risidagi reklama materiallarini ularga yo'naltirish, matbuotdagi reklama, ko'rgazmalardagi reklama va hokazolarga mukofotlovchi komissiyalar (pul mukofotlari) singari konkret harakatlar taqdim etilgan bo'ladi. O'z navbatida, mehmonxonaning muayyan ish faoliyati uchun javob beradigan har bir bo'linmasi o'zining shunga o'xshash marketing va boshqa rejalarini umumiy rejaga muvofiq tarzda ishlab chiqadi. Shu taxlit, marketing rejalashtirilishi mehmonxona korxonasidagi boshqaruvning barcha darajalarida amalga oshiriladi.

Tadbirlar rejasi rejalashtirilayotgan daromadlar va buromadlar asosida hisob-kitob qilingan ana shu xarakatlarni ta'minlovchi korxona byudjetini shakllantirishga imkon beradi. Tasdiqlanganidan keyin byudjet korxona faoliyati uchun, jumladan, marketing bo'yicha tadbirlar o'tkazishga xarajatlar uchun asosga aylanadi.

Direktor va mehmonxona bo'linmasi boshqaruvchi ana shu reja mazmun-mundarijasini o'z personaliga yetkazishi va har qaysi xodim ana shu rejani bajarish yuzasidan o'z roli va vazifalarini bilishi lozim va majburiydir.

Nazoratning eng keng tarqalgan metodi hisobot tayyorlashdir. Reja bajarilishi to'g'risidagi hisobotlar, qoida tariqasida har oy yoki har chorakda taqdim etiladi. Bu kabi amaliyot mehmonxona rahbariyatiga har bir davr natijalarini baholashga va qo'yilgan vazifalar bajarilmayotgan faoliyat yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi.

Marketing bo'yicha reja va uni tayyorlashga oid talablar

Marketing bo'yicha reja quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1. Mundarija — reja bo'limlari sanab o'tilsin.
2. Kirish — mehmonxona korxonasi missiyasi qisqacha tavsiflansin, u rejada aks ettirilgan.
3. Rezyumedan rahbariyatga axborot berish uchun foydalaniladi.
 - Betlar miqdori ikki-to'rtta bilan cheklansin.
 - Qisqa jumlar va qisqa xatboshilardan foydalanilsin.
 - Bo'lim quyidagicha tayyorlansin:
 - kelgusi yilga maqsadlar va vazifalar qisqa jumlar bilan tavsiflansin;
 - ana shu maqsadlar va vazifalarni ro'yobga chiqarishi lozim bo'lgan tanlab olingan strategiyalarga qisqacha xarakteristika berilsin;
 - rejani ro'yobga chiqarish uchun talab etiladigan resurslar, jumladan, moliyaviy resurslar ko'rsatilsin.
 - Rahbariyatga uzil-kesil taqdim etishdan oldin rezyume yana bir marta tahlil qilib chiqilsin.
4. Tadqiqot:
 - Tadqiqot natijasida olingan faktlar va to'xtamlar sanab o'tilsin. Iloji boricha bir qator yillardagi reklama byudjeti yoki marketingga byudjet bilan va mehmonxonaga ishga yollangan personal miqdori bilan taqqoslagan holda sotuvlar dinamikasi bilan ular ilovalashtirilsin.
 - Mehmonxona korxonasi asosiy xizmatlarini sotishning strategik va mintaqaviy bozorlarining qisqacha tahlili berilsin.

- Asosiy va yangi raqobatchilar sanab o'tilsin, ularning kuchli va zaif tomonlari tavsiflansin.

5. Marketing rejasi maqsadlari:

- Kelgusi davrda mehmonxona korxonasi marketing maqsad va vazifalarini vaziyat SWOT-analizi natijasida olingan to'xtamlar asosida shakllantirish.

6. Maqsadlar va vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun taklif etiladigan marketing strategiyalari:

A. Mehmonxona mahsulotlari strategiyalari:

- Mehmonxona mahsulotini rivojlantirish strategiyasi (mavjudini yanada yaxshilash yoki yangisini yaratish, yoxud birinchi va ikkinchisi ham birgalikda).
- Bozorga chuqur kirib borish strategiyasi (mavjud bozorda mavjud mahsulotlar bilan ishlash).
- Bozorning yangi segmentlarini rivojlantirish strategiyasi (korxonada yangi xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatlari yo'q).
- Diversifikasiya strategiyasi (yangi bozorga yangi mahsulot bilan chiqish).

B. Bozorni qamrab olish strategiyalari:

- Hujumkor strategiya yoki frontal hujum strategiyasi (bozor ulushini egallab olish va kengaytirish tajovuzkor pozisiyasi).
- Qurshovga olish strategiyasi (barcha yo'nalishlarda bir vaqtning o'zida raqobatchilarning xizmatlar keng assortimenti va yuqori sifati bilan hujum qilishi).
- Cheklangan frontal hujum (maqsadli bozorning alohida segmenti uchun kurash).
- Qanotdan qamrab olish (raqobatchilarnikiga o'xshash xizmatlarni ular hali namoyon bo'lmagan joylarda soish).

- Mudofaalanuvchi yoki saqlab qoluvchi strategiya (bozor ulushini saqlab qolish).

- Kooperasion strategiya (raqobatchilar bilan strategik sherikchilik).

V. Narx tayinlash strategiyalari:

- Xarajat plyus foyda (narxlarni xarajatlardan kelib chiqib tayinlash).

- Talabni mo'ljallash (maqsadi bozor mijozi to'lashga tayyor bo'lgan narxlar chegarasini tayinlash).

- Yuqori narxlar strategiyasi (narxga qaraganda, mehmonxona nufuzi va xizmatlar sifatidan ko'proq tashvishlanayotgan maqsadli bozor mijozlari uchun narx tayinlash).

- Lider ortidan quvish (mehmonxona bozoridagi lider darajasida narx tayinlash).

G. Mahsulot o'tkazishni rag'batlantirish strategiyalari:

- To'g'ridan-to'g'ri sotuv.

- Agentlik sotuvi.

- Korporativ sotuv.

- Markaziy distrib'yutorlik tizimlari.

- Mehmonxona provayderlari tizimlari.

- Internet.

D. Reklama strategiyalari:

- Bosma, video va elektron reklama ishlab chiqarish.

- OAVda tijorat reklamasi.

- Pablik rileyshnz.

- Ko'rgazmalar, yarmarkalar va xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

E. Personal bilan ishlash strategiyalari:

- Personalni tanlab olish va joy-joyiga qo'yish.

- Yollash shartlari.

- Professional tayyorgarlik.

- Motivasiya va qo'llab-quvvatlash.
- Xizmat pillapoyalarida ilgarilash.

7. Marketing bo'yicha reja tadbirlari ro'yxati:

- Marketing bo'yicha rejaning ana shu bo'limida maqsadlar va vazifalarga erishish bo'yicha takliflarni ularni ijro etish vaqti va mas'ullarni ko'rsatgan holda sanab o'tish.

8. Byudjet.

9. Daromadlar, foyda/zarar hisob-kitobi.

10. Rejani ijro etuvchilargacha yetkazish va ijroni nazorat qilish mexanizmlari.

11. Rejani qayta ko'rib chiqish va yangilash tartibi:

- Asosiy reja 8 va 9-dan tashqari barcha bandlarni o'z ichiga oladi.
- Tarixiy reja 1—4-bandlarni o'z ichiga oladi.
- Yangi mahsulot/xizmat rejasi barcha 11 bandni o'z ichiga oladi.

Marketing bo'yicha rejani ro'yobga chiqarish

Marketing rejaları va strategiyalarını ro'yobga chiqarish uchun rahbariyatning barchasidan uyushqoq ishlash talab etiladi. Marketingni ro'yobga chiqarish har kuni o'nlab va yuzlab odamlarning mehmonxona ichida va undan tashqarida qarorlar qabul qilishini va harakatini talab etadi. Marketing bo'yicha boshqaruvchi turistik bozor maqsadli segmentlari xususida, xizmatlarga savdo markalaridan foydalanish to'g'risida, taklif etilayotgan xizmatlarga narx tayinlash, ilgari harakatlantirish va o'tkazish metodlari haqida qarorlar qabul qiladi. U amalga oshirilayotgan dasturlar uchun bo'linmalarining boshqa rahbarlari qo'llab-quvvatlashishiga erishish uchun ular bilan hamkorlikda mehnat qiladi. Sifat bo'yicha boshqaruvchi xizmati bilan u xizmatlarni havola etish standartlari va texnologiyalarini, kadrlar bilan xodimlarning professional tayyorgarligi masalalarini, moliyaviy bo'linma va

buxgalteriya bilan moliyalashtirish va naqd pullar harakatlanishi masalalarini muhokama qiladi. U, shuningdek, kompaniyadan tashqaridagi odamlar, jumladan, reklama kompaniyasini rejalashtirish bo'yicha reklama agentliklari bilan va jamoatchilik qo'llab-quvatlashiga tayanib ish ko'rish uchun ommaviy axborot vositalari bilan ishlaydi. Ayrim mehmonxonalarning sotuvlar bo'yicha boshqaruvchilari turistik agentliklarga rastalarda o'z reklama prospektlari varaqalari uchun ko'proq joy bergan holda ana shu mehmonxonalarning xizmatlarini reklama qilishga undaydilar.

Muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish bir qancha hal qiluvchi momentlarga bog'liq bo'ladi. Birinchidan, u barcha ijro etuvchilar va umumiylikicha butun faoliyatni muvofiqlashtiruvchi harakatlar dasturini talab qiladi. Xarakatlar dasturi korxona marketing maqsadlariga erishish uchun nima qilinishi kerakligini, kimlar buni qilishi lozimligini, qarorlar va harakatlarni qanday kelishib olish zarurligini ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, marketing bo'yicha rejani amalga oshirishda mehmonxonani boshqarishning tashkiliy tuzilmasi muhim rol' o'ynaydi.

Mehmonxona korxonasi ichidagi qarorlar qabul qilish va mukofotlash tizimi yordamida rejalashtirish amalga oshiriladigan ta'sirchan richaglar — dastaklardir. Byudjet tuzish, mehnatga haq to'lash va faoliyat boshqa turlari ham marketing rejalari ro'yobga chiqarilishiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, agar mehmonxona oraliq natijalar uchun xodimlarni mukofotlasa, ularda uzoq muddatli vazifalar ustida ishlash uchun stimul (rag'batlantiruvchi omil) bo'lmaydi. Buni anglab yetgan korxona rahbariyati esa, o'z xodimlarini nafaqat nomerlar ish yuklanmasi darajasi uchun, qolaversa balki havola etilgan xizmat ko'rsatishdan mijozlar qanoatlangani uchun ham taqdirlaydi. Samarali realizasiya shuningdek inson resurslarini astoydil rejalashtirishni ham talab qiladi. Barcha darajalarda mehmonxona o'z boshqaruv tuzilmasi va texnologik

tizimlarini zarur malaka, manfaatdorlik va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lgan kishilar bilan to'ldirib borishi lozim. Keyingi paytlarda ko'plab mehmonxonalar inson resurslari uzoq muddatga rejalashtirish jiddiy raqobatchilik ustunliklari berishga qodir ekanligini amalda ko'rdilar. Nihoyat, muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarilishi uchun marketing rejalashtirish mehmonxona korxonasining umumiy madaniyatiga mos tushishi lozim. Korxona madaniyati — tashkilot xodimlari tomonidan baham ko'riladigan qadriyatlar va e'tiqodlar tizimi, jamoaviy ong va mentalitetdir. Korxona madaniyatiga mos tushmagan marketing rejalarini ro'yobga chiqarish mushkul. Mehmonxonalar madaniyatini o'zgartirish qiyin bo'lgani tufayli odatda rejalar ishlamiga afzal beriladi, bu ishlar esa marketing rejalarini mavjud madaniyat darajasiga muvofiqlashtiradi, uslub va madaniyatni yangi strategiyalarga moslashtirishga urinishlar esa amalga oshirilmaydi.

Umumiylikicha marketing muvaffaqiyatli amalga oshirilishi besh elementning barchasi yig'indisidan — harakatlar dasturlari, tashkiliy tuzilma, qarorlar qabul qilish va mukofotlash tizimi, inson resurslari va korxona madaniyatidan, uning strategiyasini qo'llab-quvvatlovchi yagona dastur doirasida mehmonxona qanchalik yaxshi foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

II-Bob Turizm korxonasining moliyaviy holatini tahlili

2.1 Mehmonxona xo'jaligini iqtisodiy tahlil qilishning iqtisodiy-matematik usullari

Ko`xna va qadimgi Gretsiyaning Platon darvozasiga shu so`zlar yozilgan: «Kimda kim matematikani bilmasa, uning akademiya darvozasiga kirishining hojati yo`q». Matematika - bu fanlar malikasidir. Matematika zehn va aqlni mashq qilish vositasidir.

Iqtisodiy - matematik usullarni iqtisodiy tahlilda qo'llash quyidagilardan kelib chiqqan:

1. Mehmonxonalar soni kun sayin oshib borayapti.
2. Ko'rsatiladigan xizmatlar sifati ham rivojlanmoqda.
3. Turizm iqtisodiyoti juda ham murakkab ierarxik tizimiga ega.

4. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari juda yuqori parametrlarda ishlamoqdalar, ya'ni yaratilgan turmahsulot xilma-xilligi va tarkibining o'zgarishi tez sur'atlar bilan bormoqda.

Iqtisodiy - matematik usullarni tahlilda qo'llashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- a) tahlil etish muddati tezlashadi;
- b) iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ulushi (salmog'i) aniq hisoblanadi;
- c) taxminiy yoki noaniq hisoblashlar o'rnini aniq raqam va dalillar egallaydi.

Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni qo'llash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- masala sharti belgilanadi;
- ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi;
- matematik hisoblash usuli belgilanadi;
- eksperiment model tuziladi;
- bevosita hisoblashlar bajariladi;
- aniq echimlar topiladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va dalillar aniq o'lchangan va hisoblangan bo'lishi shart. Bunga integral usulini qo'llash orqali erishish mumkin.

Masalan, tovar mahsuloti xajmining o'sishi va kamayishiga asosiy fondlar qiymati va undan samarali foydalanish ta'sirini quyidagi misolda integral usuli orqali aniqlaymiz.

1-jadval

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Haqiqatda o'tgan yili (0)	Haqiqatda joriy yili (1)	O'zgarishi (+ -) Δ
1.Turizm mahsuloti (ming so'm hisobida)	N	5254	5224	- 30
2.Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati (ming so'm hisobda)	F	4430	5844	+ 1414
3.Fond samarasi (1q:2q), (so'm hisobda)	L	1.1860	0.8939	- 0.2921

Jadvaldan ko`rinishicha, hisobot yili turmahsulot hajmi haqiqatda o`tgan yilga nisbatan 30 ming so`mga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko`rsatdi:

1. Asosiy fondlar yillik o`rtacha qiymatining o`zgarishi (ekstensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_F = F_0 \cdot \Delta F + \Delta F \cdot \Delta F : 2$$

$$N_F = 1 \cdot 1860 \cdot 1414 + (-0.2921) \cdot 1414 : 2 = +1470 \text{ ming so`m.}$$

2. Fond samarasining o`zgarishi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_L = F_0 \cdot \Delta F + \Delta F \cdot \Delta F : 2$$

$$N_L = 4430 \cdot (-0.2921) + (-0.2921) \cdot 1414 : 2 = -1500 \text{ ming so`m}$$

3. Ikkala omilning yig`indisi:

$$N_F + N_L = (+1470) + (-1500) = -30 \text{ ming so`m.}$$

Demak, tovar mahsulot ishlab chiqarishning 30 ming so`mga kamayishi asosiy fondlardan foydalanishni yomonlashganligi sababli sodir bo`lgan, buning ta'sirida turmahsulot ishlab chiqarish 1500 ming so`mga kamaygan, lekin asosiy fondlar qiymatining o`sishi natijasida mahsulot hajmi 1470 ming so`mga ko`paygan

Korrelyatsiya va regressiya usullari ikki va undan ortiq ko`rsatkichlar-ning o`zgarishini bir-biri bilan bog`langanligini hisoblashda qo`llaniladi. Bunda korrelyatsiya koeffitsienti 0 ga teng bo`lsa, u holda o`rganiladigan ko`rsatkichlarda hech qanday bog`liqlik yo`qligini ko`rsatadi. Agar korrelyatsiya koeffitsienti 1 ga teng bo`lsa, u holda o`rganiladigan ko`rsatkichlarda bog`liqlik to`liq bo`ladi, ya'ni funktsional bo`ladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida korrelyatsion-regression usuldan foydalanib, ishchilarni fond bilan qurollanish va bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumi o'rtasidagi bog'lanishni ko'rishimiz mumkin.

2 - jadval

Tartib soni	Fond bilan qurollanish (ming so'm) X	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumi (ming so'm) Y	O'rtacha X qatordan farqi $\Delta X = \bar{X} - X$	O'rtacha Y qatordan farqi $\Delta Y = \bar{Y} - Y$	Farqlarning ko'paytmasi $\Delta X \cdot \Delta Y$	X qatorning kvadrat farqi ΔX^2	Y qatorning kvadrat farqi ΔY^2
A	1	2	3	4	5	6	7
1	0.10	2.5	0.45	1.35	0.6075	0.2025	1.8225
2	0.20	2.8	0.35	1.05	0.3655	0.1225	1.1025
3	0.30	2.9	0.25	0.95	0.2375	0.0625	0.9025
4	0.40	3.7	0.15	0.15	0.0225	0.0225	0.0225
5	0.50	3.9	0.05	- 0.05	- 0.0025	0.0025	0.0025
6	0.60	4.3	- 0.05	- 0.45	0.0225	0.0025	0.2025
7	0.70	3.8	- 0.15	0.05	- 0.0075	0.0225	0.0025
8	0.80	4.5	- 0.25	0.65	0.1625	0.0625	0.4225
9	0.90	4.9	- 0.35	- 1.05	0.3675	0.1225	1.1025
10	1.00	5.2	- 0.45	- 1.35	0.6075	0.2025	1.8225
Summa	5.50	38.5	0.00	0.00	2.3850	0.8250	7.4050
O'rtacha miqdori	0.55	3.85	-	-	-	-	-

Ishchilarning fond bilan qurollanish va bir ishchiga to'g'ri keladigan ish unumi (mehnat unumdorligi darajasi) o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientini quyidagi formula orqali ifoda etamiz.

$$R_{xy} = \frac{\sum \Delta X \cdot \Delta Y}{\sqrt{\sum \Delta X^2 \cdot \sum \Delta Y^2}} = \frac{2,3850}{0.8250 \cdot 7,4050} = 0.97$$

Demak, fond bilan qurollanish va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik to'la (funktional), degan xulosa qilamiz.

Omillar tizimini modellashtirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni model tizimiga kiritish kerak. Masalan, avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi baho miqdoriga, baho o'zgarishiga, asosiy fondlar va aylanma mablag'larning o'zgarishiga, sof foydaning o'zgarishiga, turmahsulot xilma-xilligi va tarkibining o'zgarishiga hamda boshqa ko'p omillarga bog'liq.

Avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi sof foydani asosiy fondlar va aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanib, uni quyidagi formula orqali ifoda etishimiz mumkin.

$$R = \frac{O}{F + E} = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$$

Buni quyidagi misolda ko'ramiz.

3 - jadval

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Shartli belgi	Baza yili (0)	Hisobot yili (1)	O'zgarishi (+ -)
A	B	V	1	2	3
1. Sof foyda	Ming so'm	$\phi^c = X_1$	714	902	+ 188
2. Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati	Ming so'm	$F = X_2$	4430	5844	+ 1414

3.Aylanma mablag`larning yillik o`rtacha qiymati	Ming so`m	$E = X_3$	2120	2396	+ 276
4. Sof tushum	Ming so`m	N_p	6432	7340	+ 908
5.Bir so`mlik sotilgan mahsulot hisobiga olingan cof foyda	so`m	$\frac{X_1}{N_p} = X_4$	0.1110	0.1229	+ 0.0119
6. Fond sig`imi	so`m	$\frac{X_2}{N_p} = X_5$	0.6887	0.7962	+ 0.1075
8.Aylanma mablag`lar sig`imi	so`m	$\frac{X_3}{N_p} = X_6$	0.3296	0.3264	- 0.0032
8.Aylanma mablag`larning aylanish koeffitsienti	marta	$\frac{N_p}{X_3} = X_7$	3.034	3.063	+ 0.029
9.Umumiy fondlar tarkibbda aylanish mablag`larning ulushi	Koef.	$\frac{X_3}{X_2 + X_3} = X_8$	0.3237	0.2908	- 0.0329
10.Rentabellik koeffitsienti	Koef.	$R = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$	0.1090	0.1095	+ 0.0005

$$1. \Delta R(X_4) = \frac{\Delta X_4}{\Delta X_5 + \Delta X_6} = \frac{0.012}{(+0.1075) + (-0.0032)} = 0.1141$$

$$2. \Delta R(X_5) = \frac{(0.0005 - 0.1141)}{0.1075 - 0.0032} = -0.1124$$

$$3. \Delta R(X_6) = \frac{(0.0005 - 0.1141)}{0.1075 - 0.0032} * (-0.0032) = 0.0033$$

$$4. \Delta R = \Delta R(X_4) - \Delta R(X_5) + \Delta R(X_6) = 0.1141 - 0.1124 + 0.0033 = +0.0005$$

Yagona eng qulay usulni qo`llash uchun nazariy o`yin usulidan foydalanmoq kerak. Bu usulning mohiyatini quyidagi misolda ko`rishimiz mumkin.

Mehmonxona sentyabr va oktyabr oylarida 1ta mahalliy turistga xizmat ko`rsatish uchun 20 000 so`m, 1ta xorijiy turistga xizmat ko`rsatish uchun esa

40 000 so'm xarajat qilgan. Turistga sotish bahosi esa mahalliy turist uchun 60 000 so'm, xorijiy turist uchun 100 000 so'mdan iborat.

O'tgan yillar shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi oylarda havo issiq keldi. Mehmonxona 500ta mahalliy va 400ta xorijiy turist qabul qila oladi. Agar sentyabr va oktyabr oylarida havo sovuq kelsa 600 ta xorijiy va 100 ta mahalliy turist qabul qiladi.

Vazifa.

Tabiat inijliklarini hisobga olgan holda mehmonxonaga keladigan tushumni bir maromda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

1. Mehmonxona - R1 - o'yinchi

2. Tabiat - R2 - o'yinchi

Issiq havoda mehmonxona daromadi quyidagicha $400t \cdot (100000 - 40000) + 500t \cdot (60000 - 20000) = 44 \text{ mln. so'm.}$

Mehmonxona uchun A strategiya, tabiat uchun B strategiya. Mehmonxona A strategiya bo'yicha ish yuritadi. Ob-havo sovuq bo'lib qoldi.

II. $400t \cdot (100000 - 40000) + 100t \cdot (60000 - 20000) - 400t \cdot (60000 - 20000) = 12 \text{ mln. so'm.}$

III. Sovuq ob-havoda xo'jalik daromadi $600t \cdot (100000 - 40000) + 100t \cdot (60000 - 20000) = 40 \text{ mln. so'm.}$

Endigi vazifa xo'jalik yil davomida qanday nisbatda sut va go'sht ishlab chiqarishi lozimki, xo'jalik daromadi bir maromda bo'lishligini ta'minlash uchun

$$(400t. \text{ xorijiy} + 500t. \text{ mahalliy}) \frac{4}{11} + (600t. \text{ xorijiy} + 100t. \text{ mahalliy}) \times \frac{7}{11} + \frac{1}{11}$$

$(1600t. \text{ xorijiy} + 2000t. \text{ mahalliy} + 4200t. \text{ xorijiy} + 700t. \text{ mahalliy}) = \frac{1}{11} (5800t. \text{ xorijiy} + 2700t. \text{ mahalliy}) = 527ta \text{ xorijiy}, 245ta \text{ mahalliy}.$

Demak, mehmonxona uchun optimal strategiya yil davomida 527ta xorijiy va 245ta mahalliy turistga xizmat ko'rsatishdan iborat iborat. Bunda ob-havoning qay darajada kelishidan qat'iy nazar, daromadi stabil bo'lib turishi ta'minlanadi.

2.2 Kompleks iqtisodiy tahlil va xizmat ko'rsatishning muhim samaradorlik ko'rsatkishlarini tahlil qilishning metodik asoslari

Mehmonxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish hozirgi vaqtda ob'ektiv zaruriyatdir. "Kompleks" so'zi lotincha so'zdan kelib chiqib, aloqa, muvofiqlik, majmua, barchasi, jami degan ma'noni anglatadi.

Xo'jalik faoliyatining kompleks tahlili deb xo'jalik faoliyatini bo'laklarga bo'lib, bir-biriga bog'liq holda batafsil o'rganishga aytiladi.

Korxona xo'jalik faoliyati murakkab, bir-biriga bevosita bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iboratdir. Shu bois bu jarayonlarni batafsil o'rganmasdan turib, uni boshqarish uchun qulay, samarali tadbirlar ishlab chiqib bo'lmaydi. Shu tufayli xo'jalik faoliyatini yaxshilash uchun uni kompleks holda atroflicha o'rganish lozim. Bu masalani o'rganishda batafsil tahlil bilan kompleks tahlilni farqlash kerak. **Batafsil tahlil**, deganda xo'jalik faoliyatini (makonni) yoki bir iqtisodiy ko'rsatkichning bir-biriga bog'liq holda bir davr (zamon) mobaynida har tomonlama o'rganishga aytiladi.


Kompleks tahlilda esa ushbu batafsil tahlilga muntazam yondashish tufayligina erishiladi, ya'ni xo'jalik faoliyatini yaxlit holda bir qancha davr mobaynida o'rganishdir. Misol uchun mehmonxona xo'jaligi faoliyati yilning bir choragi bo'yicha batafsil o'rganiladi - bu yaxlit, ya'ni batafsil tahlil bo'lib hisoblanadi. Kompleks tahlil bo'lish uchun shu yilning hamma choraklarini va shu hisobot yilida erishilgan barcha natijalarni batafsil sistemali o'rganish zarurdir. Agar tahlil besh yillik muddatga o'tkazilayotgan bo'lsa, xo'jalik faoliyatini bir

yilda atroflicha o`rganish bu batafsil tahlildir. Shu tarzda besh yil mobaynida tahlil qilib borsak, shundagina kompleks tahlilga erishgan bo`lamiz.

Demak, xo`jalik faoliyatining kompleks tahlili xo`jalik faoliyatini batafsil o`rganishga sistemali yondashishdan iborat. Agar buni mehmonxona misolida yoritadigan bo`lsak, mehmonxonaning xo`jalik faoliyatini bir hisobot davri mobaynida to`liq o`rganish batafsil tahlil bo`ladi. Uni alohida bo`limlari bilan bir qancha davrlar bo`yicha batafsil o`rganish kompleks tahlil bo`ladi. Kompleks tahlil xo`jalik faoliyatining barcha ko`rsatkichlarini qamrab olgan holda batafsil o`tkazilishi mumkin. Shuningdek, bu tahlil alohida ko`rsatkichlar, sohalar bo`yicha ham amalga oshiriladi. Masalan, iqtisodchilar oldiga faqat korxonaning moliyaviy natijalarini o`rganish maqsad qilib qo`yilsa, aynan shu ko`rsatkichlar bo`yicha ham kompleks tahlil o`tkazish mumkin.

Kompleks iqtisodiy tahlilni o`tkazish bosqichlarini quyidagi jadvalda ko`rish mumkin (4-jadval).

1-Sxema



Xalq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, xizmat ko'rsatish salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va xizmatlar ko'rsatish sektorini boshqarishni bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun mehmonxonalarning xizmat ko'rsatish va xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish darkor.

Turizm mahsuloti ishlab chiqarishning og'ishmay o'sishi milliy daromad hajmini oshiradi, xizmat ko'rsatish va servisning o'sish sur'atlari yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarni yaratadi, mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yana ham oshiradi. Iqtisodiyotni barqaror o'sishi aholining real daromdlari o'sishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

Bozor iqtisodiyoti mehmonxona faoliyatining eng zamonaviy xo`jalik mexanizmini vujudga keltirish vazifasini o`rtaga qo`ydi. Bunday mexanizm mehmonxonani rivojlantirish uchun ta'sirchan ichki omillarni ta'minlashi kerak. Iste'molchi uchun ishlash, resurslarni butun choralar bilan tejash, fan va texnika yutuqlarini keng qo`llashga undashi zarur. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- turmahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo`yicha biznes-rejaning asoslilikini va to`g`riligini aniqlash;
- mehmonxonalarning ko`rsatgan xizmatlari bo`yicha o`sish sur'ati, tarkibi, xilma-xilligi, sifati va bir tekisliligiga baho berish;
- o`tgan yilga nisbatan turmahsulot hajmining o`sishi va uning sabablarini aniqlash;
- tuzilgan shartnoma majburiyati asosida xizmatlarni ko`rsatish bo`yicha sotish rejasini bajarilishiga baho berish;
- turmahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni tez amalga oshirish bo`yicha rezervlarni aniqlash kabilar.

Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni ifodalovchi hajm ko`rsatkichlariga quyidagilar kiradi: yalpi, tovar, sotilgan, sof va me'yoriy sof mahsulot kabilar. Deyarli barcha iqtisodiy tahlilga bag`ishlangan darsliklarda ushbu hajm ko`rsatkichlarga u yoki bu darajada to`xtalib o`tilgan. Bu borada samarali ijod qilgan I.T.Abdukarimov, E.A.Akromov, Yo. Abdullaev, M.I. Bakanov, S.B. Barngolts, L.I.Kravchenko, G.V. Savitskaya, V.I.Strajev, E.Ergeshev, A.Ibrohimov, M.Rahimov, A.D. Sheremet, M.Q. Pardaev, B.I.Isroilov, A.X.Sholimov kabi yirik olimlarni nomlarini alohida ta`kidlash mumkin.

Ta`kidlash joizki, iqtisodiy tahlil nazariyasiga bag`ishlangan o`quv adabiyotlari ichida faqat A.D. Sheremetning «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligida mehmonxonaning xo`jalik va moliyaviy faoliyatini ifodalovchi asosiy ko`rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari berilgan. Shu bois A.D.

